



Sun'iy intellekt - ustozga raqibmi yoki ilm yo'lidagi hamrohmi?

O'ktamova Muxlisa

XXI asr fan va texnologiyalar asri sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar deyarli hayotimizning barcha sohalariga kirib bordi. Ayniqsa, sun'iy intellektning rivojlanishi insoniyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Hozirgi kunda sun'iy intellekt tibbiyot, sanoat, iqtisodiyot, transport va ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Uning ta'limdagi o'rni esa eng ko'p bahs qilinadigan mavzulardan biridir. Ayrimlar sun'iy intellekt kelajakda ustozlar o'rmini egallaydi deb hisoblaydi, boshqalar esa uni ta'lim sifatini oshiradigan yordamchi vosita deb biladi. Shu sababli "Sun'iy intellekt ustozga raqibmi yoki ilm yo'lidagi hamrohmi?" degan savol bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Avvalo, sun'iy intellekt tushunchasig to'xtalish lozim. Sun'iy intellekt - insonning fikrlash, o'rganish, tahlil qilish va muammolarni hal etish kabi qobiliyatlarini ma'lum darajada kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish texnologiyasidir. U katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlaydi va knsln uchun murakkab bo'lgan hisob - kitoblarni tez bajaradi. Bugungi kunda shn'iy intellektni ta'lim tizimiga kirib kelishi o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. O'quvchilar va talabalar yangi mavzularni tushunishda, chet tillarini o'rganishda, ilmiy ma'lumotlat topishda va topshiriqlarni bajarishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishmoqda. Ayrim dasturlar o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ular uchun individual o'quv dasturlarini taklif qilmoqda. Ta'lim sohasidagi xalqaro tadqiqotlar ham sun'iy intellektning imkoniyatlarini ko'rsatmoqda. UNESCO sun'iy intellekt ta'limni rivojlantirishda muhim vosita bo'lishini ta'kidlaydi, biroq inson omili markazda qolishi kerakligini ham qayd etadi. UNESCO tomonidan e'lon qilingan tavsiyalardan sun'iy intellekt ta'limni qo'llab - quvvatlashi, ammo o'qituvchining o'rni to'liq egallamasligi kerakligi alohida ta'kidlangan.

Sun'iy intellektning afzalliklari juda ko'p. Birinchidan, u vaqtni tejaydi. Masalan, o'quvchi biror mavzu bo'yicha ma'lumot izlayotganida bir necha kitob yoki manbalarni uzoq vaqt qidirishi mumkin. Sun'iy intellekt esa kerakli ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida taqdim eta oladi. Ikkinchidan, esa u ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Dunyoning uzoq hududlarida yashovchi insonlar ham internet orqali bilim olish imkoniyatlariga ega bo'lmoqda. Tadqiqotlarda sun'iy intellekt shaxsiylashtirilgan ta'limni rivojlantirishi qayd etilgan.

Yana bir muhim masala - ma'lumotlarning aniqligi. Sun'iy intellekt ba'zan noto'g'ri yoki tekshirilmagan ma'lumotlarni ham taqdim etishi mumkin. Shu sababdan undan foydalanayotgan inson tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi va har qanday ma'lumotni ishonchli manbalar orqali tekshirishi zarur. UNESCO ham sun'iy intellekt ba'zan tezkor ammo ishonchliligi har doim ham kafolatlanmagan ma'lumotlar berishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.

Endi asosiy savolgan qaytsak: sun'iy intellekt ustozga raqibmi? Menimcha yo'q. Sababi ustoz faqat bilim beruvchi emas, u tarbiyachi, yo'lboshchi va inson qalbini tushunadigan shaxsdir. Ustoz o'quvchining ruhiy holatini sezadi, uning qobiliyatini kashf etadi va hayotiy tajribasini ulashadi. Sun'iy intellekt esa hissiyot, mehr, insoniy munosabat tarbiya bera olmaydi.

Shuning uchun sun'iy intellekt ustozning raqibi emas, balki ilm yo'lidagi hamrohi deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. U insonning imkoniyatlarini kengaytiradi, o'qish va izlanish jarayonini tezlashtiradi hamda yangi bilimlarga yo'l ochadi. Biroq uning samarali insonning ongli va mas'uliyatli foydalanishiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, kelajak ta'limi ustoz va sun'iy intellektning hamkorligi asosida rivojlanadi. Insonning tafakkuri, ijodkorligi va ma'naviy qadriyatlari texnologiya bilan uyg'unlashgandagina haqiqiy taraqqiyot yuz beradi. Sun'iy intellekt insonni almashtirish uchun emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish uchun yaratilgan. Demak, sun'iy intellekt ustozga raqib emas, balki ilm yo'lidagi eng yaxshi hamrohdur.